

OILADA O'SMIR DEVIANT XULQ-ATVORINI OLDINI OLISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Farzona Isoxonova, magistrant
O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali yo'nalishi

Annotatsiya. O'smir xulq-atvoridagi barqaror va beqaror munosabatlarni tadqiq etish ularning ijtimoiy hayotdagi bir butun ongli faoliyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish hisoblanadi. Jamiyatda oilaviy muhitning barqarorligi o'smirlarning ma'naviy qiyofasi, xulq-atvor motivlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. O'smir, xulq-atvor, barqarorlik, beqarorlik, ijtimoiy hayot, ma'naviyat, oila, oilaviy muhit, jamoatchilik, ta'lim, tarbiya.

Abstract. The study of stable and unstable relationships in adolescent behavior is a study of their whole conscious activity in social life both theoretically and practically. The stability of the family environment in society has a positive effect on the moral image and behavioral motives of adolescents.

Keywords. Adolescent, behavior, stability, instability, social life, spirituality, family, family environment, community, education, upbringing.

O'smir xulq-atvoridagi barqaror va beqaror munosabatlarni tadqiq etish ularning ijtimoiy hayotdagi bir butun ongli faoliyatini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganish hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda o'smir faoliyatining ongliligi uning turli-tuman jarayonlarda, ya'ni oila, jamoatchilik, umumjamiyat munosabatlarida, ta'lim-tarbiya hamda madaniy faoliyatida namoyon bo'ladi. O'smirning shaxsi va xulq-atvor motivlari kundan kunga tadrijiy asosda turli darajalarda, har xil ko'rinishlar va mazmun-mohiyatga ega bo'lgan ijtimoiy faoliyatida o'z ifodasini topib takomillasha boradi. Bunda ijtimoiy va oilaviy muhitning barqarorligi, ta'lim va tarbiya tizimining yuqori darajalari muhim omillar hisoblanadi.

Jamiyatda yoshlarni ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish, ular o'rtasida tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turli xil chora-tadbirlarni samarali tashkil etilishi o'smirlar xulq-atvorini barqarorlashuvi va va salbiy ko'rinishlarini oldini oladi. "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida "Ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emas, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida etarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayapti, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan", deb ta'kidlangan.

Jamiyatda oilaviy muhitning barqarorligi o'smirlarning ma'naviy qiyofasi, xulq-atvor motivlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oilaning totuvligi, moddiy, uy-joy va boshqa turmush shart sharoitlarining yaxshiligi bilan ham bog'liq ravishda o'smirlarning ijtimoiy statusi shakllanadi. SHuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-

ma'naviy, siyosiy-huquqiy muhit ta'siri ostida o'smirlarning hayot faoliyati barqarorlashib, tafakkur tarzi o'zlashtirib boriladi, ijtimoiylashuv jarayonlarini yuz beradi. O'smir ijtimoiy-ma'naviy qiyofasining shakllanib borish jarayoni murakkab va keng qamrovli bo'lib, uning psixologik jihatlari, tuyg'ulari, xohish-istaklari, e'tiqod va qarashlari, ongli ravishda faollikka chorlovchi xarakterli harakat motivlari, hayotiy pozitsiyasi bilan bog'liq ravishda takomillashib boradi.

“Farzand ota-ona qo'lidagi omonatdir, - deb yozadi akademik E.Y. Usupov, - uning dili nafis bir gavharga o'xshaydi. Gavharga turli naqshlar solish mumkin bo'lganidek, bola diliga ham turli fikrlar naqshini solish mumkin. Bola qalbi toza er kabidir, unga qanday urug' sepsang, o'sha urug' o'nadi. Ota-ona esa shu toza erga birinchi urug' ekuvchilardir. Bola qalbidagi birinchi ma'naviyat kurtagi ota-ona ekkan urug'dan o'nib chiqadi. Bu esa toza va musaffo urug' bo'lmog'i kerak”.

O'smirlarda oilaviy muhitda ota-onaga ko'makdosh bo'lish, ularning har bir o'g'itlari va pand-nasihatlariga rioya etishga mas'uliyat bilan yondoshish, oilaviy an'analarga sodiqlik, moddiy munosabatlarida halol bo'lish kabi ahloqiy sifatlar doimiy qadriyatga aylantirilsa oilada ishonchli ma'naviy-ma'rifiy muhit ta'minlanadi. SHuningdek, oilaviy munosabatlar barqarorligini ta'minlashda yoshlardagi oriyat, vijdonlilik, irodalilik, mulohazalilik, adolatlilik kabi ijobiy sifatlarning shakllanishi muhim rol o'ynaydi. Mazkur jarayonlarning ta'minlanishi oila ma'naviyatini yuksaltirishda katta siljishlarga sabab bo'ladi, ota-ona va farzand munosabatlarida ma'rifiy jozibadorlik namoyon bo'ladi.

Q. Qur'onboevning ta'kidlashicha, “Oila, maktab va mahallada barqarorlashgan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar teran tafakkurli barkamol shaxsni voyaga etkazadi. Bugungi yoshlarimizni ajdodlarimizga munosib avlod qilib tarbiyalash, muqaddas qadriyatlarimizni asrab-avaylash va hurmat qilishga o'rgatish, mamlakatimiz istiqboli va taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'sha oladigan, iymon-e'tiqodi mustahkam, irodasi baquvvat farzand qilib tarbiyalashda ota-onalar, mahalla, jamoat tashkilotlari, ta'lim muassasalarining hamkorligi izchil va tizimli ravishda olib borishni davrning o'zi taqozo qilmoqda”. SHuningdek, bu borada A. Saitkasimovning ta'kidlashicha, “Oilaviy munosabatning sofliги uning oiladagi bolalarning xulq-atvoriga, ma'naviy kamolotiga ta'sirini kuchaytirish ko'p hollarda ota-ona o'rtasidagi va ularning bolalar bilan o'zaro munosabatiga bog'liq bo'lgan”.

Bugungi globallashtirilgan dunyoning ta'siri tufayli o'smirlar ijtimoiy-ma'naviy hayotida beqaror munosabatlarning shakllanishi ham kuzatilmoqda. Bu esa, oilaviy munosabatlarga ham o'z navatida ta'sir ko'rsatmoqda. O'smirlar ma'naviy dunyosida irodasizlik, nomardlik, dangasalik, tubanlik, riyokorlik, ahloqsizlik kabi xislatlar ham mavjudki, mazkur holatlar oilada o'smirlar va ota-ona munosabatlarida, ta'lim-tarbiya jarayonida ustoz va shogird aloqalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Umuman olganda bugungi zamonaviy texnogen madaniy tamaddun davrida o'smirlar axloqiy qiyofasini barqaror darajalari va unga erishish borasidagi munosabatlar murakkablashib bormoqda.

O'smirlar jamiyatda ijtimoiy hayotga ma'naviy, ma'rifiy asosda, ratsional, ya'ni aql va farosat bilan, konstruktiv va ongli ravishda yondashmasdan, irratsional, ya'ni ongsiz, destruktiv asoslarda yondashuv ustunlik qilayotganini

ko‘rinib qolmoqda. O.To‘raevaning ta’kidlashicha, “Bola kichiklikda kattalarga tahlidchan va itoatkor bo‘ladi. Kattalar nima qilsa, shuni qiladi, aytganlaridan chiqmaydi.yoshi o‘sib borgan sari aqli ko‘p narsaga etadigan bo‘lib qoladi, endi u ba’zi masalalarda kattalar bilan kelisha olmaydi, o‘z fikrida turib oladi”.

Zamonaviy sharoitda o‘smirlar xulq-atvori motivlarini barqarorlashtirish jarayonida ilgari mavjud bo‘lgan eskirgan andozalar, ta’lim-tarbiya modellaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa ko‘chirish, ba’zi bir jozibador bo‘lib ko‘rinadigan, ommaviy madaniyat uyg‘unlashgan xorijiy tarbiya tizimlarini o‘zlashtirib olish yaxshi natija bermaydi. Bunda zamonaviy tarbiya modellarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar omuxtaligi asosida ishlab chiqish, o‘smirlar hayotidagi globallashtirish davri bilan bog‘liq birmuncha muammolarini echishga qaratilgan yangi, innovatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda o‘smirlarni ijtimoiy-ma’naviy hayotga ijtimoiylashuvi va integratsiyalashuvning yangi-yangi qoidalarini yaratish bo‘yicha rejali ish olib borish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori . Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. 26 mart, 2021 yil. PQ-5040. www.lex.uz.
2. Yusupov E., Yusupov O‘. Oila – ma’naviyat bulog‘i. T, 2003, 104-bet.
3. Quronboev Q. SHukronalik – ma’naviyat targ‘ibotining uzviy jihati. //Yoshlarda shukronalik va hayotga pozitiv yondoshuvni mustahkamlash ijtimoiy barqarorlik omili sifatida./Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, Nishon-noshir, 2014. –B. 5.
4. Saitkasimov A. Ma`naviy-marifiy ishlarni tashkil etish metodikasi. /O`quv qo`llanma/ -Toshkent, Tafakkur, 2022. –B. 73.
5. To‘raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. T, O‘qituvchi, 1990, 76-bet.